# MUSTAQILLIK YILLARIDA HOSIL BO‘LGAN METAFORIK IQTISODIYOT TERMINLARNING LUG‘AVIY QATLAMLARI

Ikromjon Toshpulat-ug‘li Xabibjonov
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** Mustaqillikdan avval ham o‘zbek tilida metaforik nominatsiya natijasida ko‘plab terminlar yasalgan. Iqtisodiyot terminlari ichida hatto boshqa tillardan o‘zlashgan leksemalar ham metaforik nominatsiya usulida hosil qilingan. Ushbu maqolada mustaqillik yillarida hosil bo‘lgan metaforik iqtisodiyot terminlarning lug‘aviy qatlamlari haqida qisqacha to‘xtalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** metafora, termin, iqtisodiyot, o‘zlashma so‘zlar

# LEXICAL LAYERS OF METAPHORICAL ECONOMIC TERMS FORMED DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Ikromjon Toshpulat-ugli Khabibjonov
Tashkent University of Economics and Pedagogy

**Abstract:** Even before independence, many terms were created in the Uzbek language as a result of metaphorical nomenclature. Even lexemes borrowed from other languages among economic terms were created using the method of metaphorical nomenclature. This article briefly discusses the lexical layers of metaphorical economic terms formed during the years of independence.

**Keywords:** metaphor, term, economy, borrowed words

O‘zbek tilida metaforik nominatsiya natijasi hisoblangan bir necha o‘nlab iqtisodiyot terminlari o‘zbek iqtisodchi olimlari yaratgan bilimlarni to‘plab, saqlab hamda hozirgi kungacha yetkazib keladi. Mana shunday funksiyaga ega terminlar qatorida birgina “t” harfi bilan boshlanadigan *talab* (xaridor, iste’molchining bozorda muayyan tovarlarni, xizmatlarni ne’matlarni sotib olish istagi; bozorga chiqqan va pul imkoniyatlari bilan ta’minlangan ehtiyojlar, IAIL, 2022, 307), *tarqalish* (sarmoya kiritishning turli sohalariga investitsiya yo‘naltirish bilan bog‘liq yo‘qotish xavfini kamaytirishga yo‘naltirilgan mablag‘ kiritish siyosati, IAIL, 2022, 311), *tavakkalchilik* “qarorning amalga oshish ehtimolini ham, uning oqibatlarini ham baholashni o‘z ichiga oladigan integral ko‘rsatkich (IAIL, 32022, 11), *to‘ldirish* (pul mablag‘lari, zaxiralar hajmining tiklanishi, ularning talab darajasidagi me’yorga yetkazilishi, mavjud vositalarning yetarli bo‘lmaganlari bilan to‘ldirilishi (IAIL, 2022, 324) kabilarni ko‘rsatish ahamiyatli. Ushbu terminlarning hech biri 1981-yilda


(cc) BY

chop qilingan ikki jildli izohli lug‘atda qayd etilmagani sababli ularni mustaqillik yillarida hosil qilingan terminlar guruhiga kiritdik. Bundan tashqari, yana bir necha shunday terminlar mavjud:

Aylanma: Oldi-sotdi munosabatlarini amalga oshirish vositasi vazifasini bajaradigan naqd yoki naqd bo‘lmagan pul ko‘rinishidagi mablag‘. “O‘TIL”da ham bir ma’nosida terminologik tushunchani ifodalashi aytilgan: Aylanma 1 *sft*. Aylana shaklida bo‘lgan, doira shaklidagi, doiraviy, halqasimon. *Aylanma temir yo‘l.* 2 *sft*. To‘g‘ri yo‘lga nisbatan uzoqroq va chalkash, aylanish. 3 *ot* Tramvay va sh.k. ning aylanib, orqaga qaytadigan joyi. *Tramvay aylanmasi*. 4 *ot* Daryo, dengiz va sh.k. ning ko‘pincha qarama-qarshi oqimlar to‘qnashadigan joylarida suvning ust qismida sodir bo‘ladigan uyurma harakat, shunday harakatli joy. 5 Muomalada yuradigan (pul, mablag‘ va sh.k. haqida). *Korxonalar qachongacha... kasodga uchragan mollarini qalashtirib tashlab, yana aylanma mablag‘lar berishni so‘rab, yalinib yuradilar*. Gazetadan. (O‘TIL, I, 2022, 194-195)

*Aylanma* leksemasi terminlik kasb etishidan avval umumtildagi *aylanmoq* leksemasining 4-ma’nosidan - “muomalada bo‘lmoq, yurmoq” (Pulning aylanishi)dan rivojlangan. (O‘TIL, I, 2022, 95; ) Harakat o‘xshashligi asosida hosil bo‘lgan.

Beg‘araz [be.. + g‘araz]: 1) o‘z manfaatini ko‘zlamasdan, xolis ish tutadigan, yomonlikni istamaydigan, g‘arazsiz; 2) yomon niyatni ko‘zda tutmagan, sidqidillik bilan qilingan; xolisona; 3) *iqt. Qaytarib berilmaydigan*. *Beg‘araz moliyaviy yordam. Beg‘araz tashqi ko‘mak* (O‘TIL, I, 2022, 439). Belgi o‘xshashligi asosida hosil bo‘lgan.

Muzlamoq 1) muzga aylanmoq, muz hosil qilmoq, muz qoplamoq; 2) qattiq sovuq ta’sirida qotib qolmoq, to‘ngmoq; yaxlamoq; 3) *ko‘ch*. his-sezgisiz holga tushmoq; qotib qolmoq; 4 *iqt*. *avvalgi darajada turmoq, faolllikdan to‘xtamoq. Avtomobil va turarjoy bozori go‘yoki muzladi*. Gazetadan (O‘TIL, III, 303). Harakat o‘xshashligi asosida hosil bo‘lgan.

Muzlatmoq 1) Muzlamoq fe’lining orttirma nisbat shakli; 2) *iqt*. *muayyan iqtisodiy parametrni o‘zgartirishni yoki ma’lum bir moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishni taqiqlash*. *Shveytsariya banki Rossiya bilan aloqador bo‘lgan, umumiy qiymati taxminan 5 milliard dollarlik aktivlarni muzlatib qo‘ydi*. Gazetadan (O‘TIL, III, 304). Harakat o‘xshashligi asosida hosil bo‘lgan.

Ruxsatnoma [ruxsat + noma]: 1) yozma ravishda berilgan ijozat, ruxsat; 2) *iqt. ayn. litsenziya*. *...chetga chiqariladigan mahsulot uchun ruxsatnoma berish tartibi anchagina soddalashtirildi.* Gazetadan (O‘TIL, IV, 2022, 472). Shakl o‘xshashligi asosida hosil bo‘lgan. Huquqiy tushuncha bildiradigan leksema iqtisodiy huquq tushunchasiga ko‘chirilgan.


(cc) BY

So‘ndirish - qarzdor tomonidan kredit beruvchilardan olingan mablag‘larning qaytarilishi (IAIL, 2022, 304). Mazkur termin iqtisodiyot tushunchasi ifodalovchisi sifatida faqat maxsus sohaviy o‘zbek tili lug‘atlarida berilganligi aniqlandi. Harakat o‘xshashligi asosida hosil bo‘lgan. Olovga xos holat harakatga ko‘chirilgan.

Tavakkalchilik 1) tavakkal bilan ish tutish, tavakkal ish; 2) *iqt*. *foydadan mahrum bo‘lish va boshqa sabablarga ko‘ra zarar ko‘rish singari yomon oqibatlar ro‘y berish ehtimoli*. (O‘TIL, IV, 2022, 136) Umumtildagi bosh ma’nodan harakat o‘xshashligi asosida hosil bo‘lgan. Mazkur iqtisodiyot tushunchasi zarar ko‘rish mumkin bo‘lgani holda biznesga pul tikish, nimanidir ishlab chiqishga xos xatti-harakatni bildiradi. Umumtilda tavakkal bilan ish tutish keng ma’noda shaxsga xos xatti-harakatni ifodalasa, iqtisodiyotda ma’no doirasi torayadi, faqat biznesga oid bo‘ladi. Ya’ni “uzoq mulohaza qilib o‘tirmay, nima bo‘lsa bo‘lar, yo ostidan yo ustidan zaylida qilingan harakat ma’nosida” talqin qilinadi. Tavakkal tushunchasi esa tavakkaliga, tavakkal bilan ish qiluvchi ma’nosini beradi”, deyiladi[1].

Unumdorlik 1) unum berish, unumlilik darajasi. *Yerning unumdorligi*; 2) *iqt.* ishlab chiqarish samaradorligini aks ettiruvchi, ishlab chiqarilgan mahsulotning hajmi, sifati va mehnat xarajatlari o‘rtasida miqdoriy (son bo‘yicha) o‘zaro bog‘liqlik (O‘TIL, IV, 2022, 583); 3) *iqt.* ishlatiladigan resurslar, ishlab chiqarish omillari birligi hisobidan mahsulot chiqarish bilan tavsiflanadigan ishlab chiqarish samaradorligi ko‘rsatkichi (IAIL, 2022, 329). Jarayon o‘xshashligi asosida hosil bo‘lgan. Umumtilda *unumdorlik* leksemasi asosan yerning hosildorligi, har qanday ishning mahsuldorligini ifodalagan bo‘lsa, keyinchalik shu ma’no o‘xshashligi asosida iqtisodiyot tushunchasiga nom qilib ko‘chirilgan.

Xavf-xatar [xavf + xatar]: 1) ziyon-zahmat yetkazadigan tahlikali vaziyat (O‘TIL, VI, 2022, 30-31); 2) *iqt. korxona rejalari va byudjetini amalga oshirishda noxushliklar (muvaffaqiyatsizliklar)ning yuzaga kelish ehtimoli.* (IAIL, 2022, 349) Vaziyat, holat o‘xshashligi asosida hosil bo‘lgan.

O‘sish 1) o‘smoq fe’lining harakat nomi shakli; 2) *biol.* hujayralar, shuningdek, hujayra bo‘lmagan tuzilmalar soni va massasining ortishi hisobiga organizm yoki tana a’zolari hajmi va massasining oshib borishi; 3) *iqt.* tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar yaratish hajmining oldingi yil (davr)larga nisbatan ko‘paygan miqdorda takrorlanishi, iqtisodiy ko‘rsatkichning uning dastlabki hajmiga, bazaviy miqdoriga nisbatan ko‘payishi va rivojlanishi. (O‘TIL, VI, 2022, 451; IAIL, 2022, 375) *O‘smoq* leksemasining “son-miqdor, daraja va shu kabi jihati ortmoq, kuchaymoq” sememasining rivojlantirish orqali harakat o‘xshashligi asosida hosil bo‘lgan.

Bandlik - mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy-iqtisodiy foydali mehnat bilan mashg‘ul bo‘lishi; fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan va qonunlarga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyat.

[1]https://www.coursehero.com/file/149896868/1-Tavakkalchilik-va-xavf-xatar-turlari-Tavakkalchilik-tushunchadocx/


(cc) BY

(IAIL, 2022, 34) Bandlik leksemasining umumtildagi “biror joy yoki narsaning boshqa narsa bilan band ekanligi” (*uyning bandligi, mashinaning bandligi* kabi) ma’nosini rivojlantirib, hozirgi iqtisodiyot terminologiyasida “shaxsning biror kasb yo hunar bilan mashg‘ulligi”, “ish joyiga egaligi” ma’nosida terminlashdi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ermatov I. O‘zbek tilshunoslik terminlarining shakllanishi va taraqqiyoti (umumiy o‘rta ta’lim maktablarining darsliklari asosida): Filol. fan. fals. d-ri. diss. avtoref. - Toshkent, 2019.

2. Juvonmardiyev A. XVI - XIX asrlarda Farg‘onada yer-suv masalalariga doir. - Toshkent: Fan, 1965.

3. Narxodjayeva X. O‘zbek tilida jarayon anglatuvchi terminlarning lingvistik xususiyati: Filol. fan. nomz. diss. avtoref. - Toshkent, 2017.

4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-jild. - Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2006.


(cc) BY